

O'QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING ROLI

Umarova Dilafro'z Anvarovna

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
o'qituvchisi*

Ravshanova Shabnam Qosim qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta'limning rivojlanish tarixi, boshlang'ich sinf darslarida integratsiyalashgan ta'limdan keng va samarali foydalanish hamda yosh o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda fanlarni o'zaro aloqadorlikda o'rgatib borishning ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, fanlar aloqadorligi, boshlang'ich sinf, darsliklar, axborot-texnologiyalari, o'z-o'zini anglash, dunyoqarash, o'yin texnologiyalari.

Аннотация: В статье представлен всесторонний обзор истории развития интегрированного образования, широко распространенного и эффективного использования интегрированного образования в классах начальной школы, а также важности преподавания предметов во взаимосвязанной манере для развития самостоятельного мышления у младших школьников.

Ключевые слова: интеграция, междисциплинарность, начальная школа, учебники, информационные технологии, самосознание, мировоззрение, игровые технологии.

Abstract: This article discusses the history of the development of integrated education, the widespread and effective use of integrated education in primary school classes, and the importance of teaching subjects in an interconnected manner in developing independent thinking in young students.

Keywords: integration, interconnectedness of subjects, primary school, textbooks, information technologies, self-awareness, worldview, game technologies.

Bugungi kunda fanlar rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Buni muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim to'g'risida qabul qilayotgan qaror va farmonlarida ham ko'rib turibmiz. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi"ning 4-yo'nalishida ham ta'lim tizimi to'g'risida fikr yuritilgan. Shunday ekan o'qituvchi tashkil qiladigan integratsiyalashgan ta'lim o'z o'rnida har bir dars uchun qiziqarli va samarali jarayon hisoblanadi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandani uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi.

Boshlang'ich ta'lim uchun zarur va ustivor yo'nalishlaridan biri ta'lim mazmunining yangilanishi, darsni integratsiyalangan tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy-innovatsion texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki, dars ta'lim – tarbiya berishning asosiy o'zagidir. O'quvchining o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Integratsiyalangan yondashuv metodlari va usullariga quyidagilar kiradi: evristik suhbatlar, umumiy suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, o'qitishning ko'rgazmali metodlari, mustaqil ishlar, o'qish, matematika darslarida og'zaki rasim chizish, tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish, ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish. Ushbu metodlar va turli

viktorinalarni darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat, o'qitish maqsadidagi integratsiya – bu o'quvchini o'qitishni birinchi qadamlaridanoq olamni bir butunlikda va uni barcha elementlari o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur berishdir. Integratsiya – an'anaviy ta'lim vositasi; oldin mavjud turlangan bilimlar kesishuvida bilmaganlarni to'ldirib olish, ular orasidagi mavjud aloqani o'rnatish; o'qitishda mavjud bilimlarni yangilash bilan o'quvchining o'zlashtirish darajasini oshirish. Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan turli voqea hodisalarning, ular orasidagi aloqalalarning bir-biriga bog'liq holda rivojlanishini fanlararo aloqadorlik asosidagina tushunib yetish mumkin. Tabiat va jamiyat fanlarini alohida – alohida o'rganish ularga oid tarqoq bilimlarni shakllantirishga olib keladi. Bunday bilimlar tabiat va jamiyatning bir butunligi, insoniyatning tabiatda tutgan o'rni, insoniyat oldida turgan global muammolar mohiyatini to'g'ri tushinish va uni oqilona hal qilish uchun tizimli yondashuv zarurligi haqidagi tasavvurlar hosil bo'lishiga imkon bermaydi.

Shuningdek, ta'limni didaktik o'yinlar ko'rinishida tashkil etilishi o'quvchilarda ijodiy tafakkurni, ichki faollikni, erkin muloqotga kirishish, o'z hulqini boshqarish, muloqot madaniyati va saviyasini o'zlashtirishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ma'naviyati, ruhiy olam ko'rinishlari uning muloqoti orqali namoyon bo'ladi. Sir emaski, bugungi kunda yoshlarni muloqot saviyasi, madaniyati, muloqot orqali hissiy holatlarini bayon eta olish imkoniyatida qo'pol nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Bu muammo yechimi esa ularni ta'lim jarayonida o'z ustida ishlashlarini tashkil etish, o'zga shaxslarni va o'zini o'zgalar qarashlari (refleksiya) bilan baholay olishlarini yuzaga keltirish orqali hal etish mumkin. Bundan tashqari ta'limda individual xususiyatlarni e'tiborga olgan holda va ichki imkoniyatlarga ko'ra turli usullarni qo'llanilishi, o'quvchilarni turli vaziyatlarda faollik ko'rsatishlarini talab etilishi ulardagi ochilmay qolgan imkoniyatlarni, zabt etilmagan yangi qirralarni kashf etilishiga turtki bo'ladi. Jumladan, “Keys stadi” ya'ni muammoli vaziyatlar mantiqiy fikrlashni, xotira, diqqat, idrok, hayol, nutq jarayonlari uzviyligini, tafakkur tezligi va nutqiy mahoratni mukammal darajasini namoyon etishni talab qiladi. Bundan tashqari hal etilayotgan muammo yechimiga qadar turli yondoshishlar, ta'riflar keng qamrovli fikr yuritishga, o'z aqliy salohiyatini qay darajada ekanligini baholay olishga sharoit yaratadi. Shu o'rinda

aytib o'tishimiz kerakki, har bir muammoli vaziyat va o'rganilgan nazariy jarayonlarning amaliy vaziyatlarini ko'rib o'tishimiz o'quvchilar xotirasida o'chib ketmaydigan bo'lib saqlanib qoladi. Psixologik nuqtai nazardan, shaxs o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini qay darajada adekvat baholay olishi uni jamiyatda faollik ko'rsatishiga, shaxslararo munosabatlar tizimiga oson kirisha olishiga, ichki salohiyatidan oqilona, samarali foydalana olishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari bir xillikka yo'g'rilgan ta'lim mazmuni shaxs xotirasida kam qo'zg'olishlar hosil qiladi va shu bilan birga tasavvurlar tizimida assotsiativ bog'lanishlar uzviyligi ham faol bo'lmaydi. Darhaqiqat, hozirgi yangi darsliklardagi ko'plab boshqotirmalar va mashq daftarlardagi turli topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini anglagan holda dunyoqarashidan kelib chiqib topshiriqlarni bajarishga moslashtirilgan. Bu o'z o'rnida o'qituvchining faolligi va o'quvchilar bilan ishlash mahoratini ochib beradi ya'ni, har bir fanlarda berilgan mavzular bir-biriga moslashtirilganligidan kelib chiqib o'quvchilarni hayotiy jarayonlarga tayyorlab borishi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosalashimiz mumkinki, jahon mamlakatlarida ta'lim tizimi rivojlanib borayotgan bir davrda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish va uni har bir dars jarayonlarida qo'llash orqali biz ta'lim va tarbiya jarayonida ko'zlangan maqsadimizga yetamiz. Bundan tashqari o'quvchilarni Xalqaro baholash dasturlari talablariga mos tarzda tarbiyalash uchun aynan integratsiyalashgan ta'lim asosiy vosita sanaladi. Kuzatishlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyalashgan ta'lim vositasida ta'lim olayotgan o'quvchilar aniq va mustaqil fikrlay oladi, hayotiy vaziyatlarda qarorlarni mustaqil ravishda qabul qila oladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan metodikalarni keng tatbiq etish dolzarb va zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. <https://lex.uz/acts/-3107036>

3. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voriz nashriyot", 2013.

4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.

5.Jo'raeva O. *Integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish*. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.

6.Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TE Umarova,

7. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIOEMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403.SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.

8.Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.